

formed, and they are characterized by the fact that they embody lexical-semantic groups that are interrelated and appear in a hierarchical relationship to them.

References

1. Ермоленко Г.М. Лингвокультураны тематической группы «Одежда» (сопоставительный анализ на материале английского и русского языков): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Пятигорск, 2009. – С. 11.
2. Куренкова Т.Н. Лексико-семантическое поле и другие поля в современной лингвистике // Сибирский журнал науки и технологий, 2006. – № 4 (11). – С. 176.
3. Куренкова Т.Н. Лексико-семантическое поле и другие поля в современной лингвистике // Сибирский журнал науки и технологий, 2006. – № 4 (11). – С. 176.
4. Чумак-Жунь И.И. Лексико-семантическое поле цвета в языке поэзии И.А. Бунина: состав, структура, функционирование: Дисс. ... канд. филол. наук. – К., 1996. – 185 с.
5. Gayrat A. Linguocultural study of light industry lexicon. – 2021.
6. Gayrat A. Grammatical features of the lexicon of light industry.
7. Arapov G. N. Interpretation of the light industry lexicon in modern linguistics //ISJ Theoretical & Applied Science. – 2023. – Т. 7. – №. 123. – С. 2023.
8. Namozovich A. G. Expression of Ethnocultural Realia in the Lexicon of Light Industry in English, Uzbek and Russian. – 2023.
9. Ачилдиева Н. Многозначность демографической лексики в русском языке: контекстуальные аспекты и семантические особенности //Innovations in Technology and Science Education. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 741-746.
10. Ачилдиева Н. Антонимия в демографической лексике русского и узбекского языков //Universal Journal Of Academic And Multidisciplinary Research. – 2023. – Т. 1. – №. 7. – С. 95-100.

GLOBALLASHUV JARAYONLARI KONTEKSTIDA GAZETA-PUBLITSISTIK USLUBI: DISKURSIV TAHLIL

Mukaddas ISRAIL

O'zDJTU xalqaro jurnalistika fakulteti professori

Annotatsiya. Bugungi kunda dunyo tilshunosligida gazeta-publitsistik uslubiga oid tadqiqotlar jamiyatning moddiy-ma'naviy qadriyatlarini ko'zgusi sifatida turli milliy-madaniy o'ziga xosligi masalalarini yechish an'anaviy lisoniy tahlil usullari bilan

birgalikda zamonaviy yangi uslub va yondashuvlarni taqozo etmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi – gazeta tili ijtimoiy voqelikni, jamiyatning tuzilishini, qadriyatlar va madaniy xususiyatlarni aks ettirishini diskursiv tahlilga tortish. Tahlil natijalari shuni korsatdiki, nloballashuv sharoitida gazeta-publitsistik uslubi sezilarli o'zgarishlar va moslashuvlarga yuz tutmoqda, bu global jarayonlar jurnalistik materiallarning mavzulari, tuzilishi va tiliga ta'sir qilishiga sabab bo'lmoqda. Gazeta-publitsistik uslubi jamoatchilik fikrini shakllantirish va voqealarni yoritishda muhim vosita bo'lib qolmoqda hamda yangi voqeliklarni yoritishda publitsistika sezilarli darajada rivojlanib bormoqda.

Kalit so'zlar. *gazeta-publitsistik uslubi, globallashuv jarayonlari, diskursiv tahlil, kontekst, jamoatchilik fikri, zamonaviy o'zbek mediiasi, lisoniy vositalar, mediamatn, ommaviy kommunikatsiya tili, pretsedentlik fenomeni.*

Globallashuv sharoitida gazeta-publitsistik uslubi sezilarli o'zgarishlar va moslashuvlarga yuz tutmoqda, bu global jarayonlar jurnalistik materiallarning mavzulari, tuzilishi va tiliga ta'sir qilishiga sabab bo'lmoqda. Aytish joizki, globallashuv sharoitida gazeta-publitsistik uslubi jamoatchilik fikrini shakllantirish va voqealarni yoritishda muhim vosita bo'lib qolmoqda hamda yangi voqeliklarni yoritishda publitsistika sezilarli darajada rivojlanib bormoqda. Zero, gazeta tili ijtimoiy voqelikni, jamiyatning tuzilishini, qadriyatlar va madaniy xususiyatlarni aks ettiradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, gazeta tili turli jamiyatlarda dinamik jarayonlarni aks ettirishda va adabiy tilning taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi. O'zbek gazetasi tilida yuz berayotgan ushbu o'zgarishlarda biz tilning demokratlashuvini, rasmiyatchilikdan voz kechishni va yanada tabiiy va erkin nutqqa intilishni ko'ryapmiz. Ma'lumki, massmediaviy tilni turli yo'nalishlarda o'rganish o'zbek mediatilshunoslarining e'tiborini tortishi bejiz emas, chunki bu axborot oqimida tildan foydalanishning turli xil uslubiy variantlarini mujassam etgan soha hisoblanadi.

D. M. Teshabayevaning izohlashicha, “gazeta-publitsistik uslubida ishontirish o'quvchi yoki tinglovchiga emotsional ta'sir ko'rsatish vositasida amalga oshiriladi.

Muallif yetkazilayotgan axborotga o'z munosabatini bildiribgina qolmay, muayyan ijtimoiy guruh – partiya, harakat va boshqalarning fikrini ham ifodalaydi”⁷⁵.

Zamonaviy o'zbek mediasi sohasida izlanish olib borayotgan tilshunoslarning zamonaviy jamiyatning taraqqiyoti munosabati bilan mediamatnning shakllanishida gazeta-publitsistik uslubining o'rni masalasiga qiziqishi tobora ortayotgani bejiz emas. Bunda publitsistik uslubning eng boy manbai bo'lgan gazeta matnlariga alohida e'tibor berilmoqda. Darhaqiqat, zamonaviy gazeta matnlari nafaqat ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotda yuz berayotgan o'zgarishlarni aks ettirmoqda, balki lisoniy o'zgarishlarni o'rganishga imkon beruvchi lingvistik tadqiqotlarda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy o'zbek gazeta tili va uslubi, shuningdek, gazeta-publitsistik uslubi borasidagi izlanishlar muhim o'rin tutadi. Bunga A. Abdusaidov, D. M. Teshabayeva, M. Israil, M. Xudoyqulov, Y. Odilov, M. Artikova, Sh. Usmanova, Sh.K. Abduraimova, S. Aktamova, Sh. B. Jabborova, A. Shomaqsudova, Z. Safarmaxmatova, G. Narziyeva, X. A. Jabbarova, Z. G'. Yodgorova va boshqalarning tadqiqotlari misol bo'la oladi. Ushbu olimlar media tili sohasi rivojiga katta hissa qo'shib kelmoqdalar.

D. M. Teshabayeva publitsistika jamiyatning siyosiy-mafkuraviy sohasiga xizmat qilishini ta'kidlar ekan, dastavval, mazkur uslubning asosiy vazifasi sifatida tilning ta'sir etish xususiyatining o'ziga xosligini e'tirof etadi. Olimaning fikricha, zamonaviy publitsistik uslubda tilning ikki teng huquqli vazifasi ko'zga tashlanadi: *axborot berish* va *ta'sir etish*. Shuning uchun funksional uslubshunoslikda publitsistik uslubning *publitsistik* va *axboriy* uslublarini hosil qiluvchi omillarning dixotomiyasiga alohida e'tibor beriladi. Publitsistik uslubning o'zi, birmuncha to'liqroq aytganda, – ommaviy kommunikatsiya uslubi sifatida o'rganiladi⁷⁶. Bu fikrni M. Artikova “Mediamatnda pretsedentlik fenomenining lingvomadaniy aspekti (o'zbek va ispan gazetalari misolida)” nomli tadqiqotida tasdiqlaydi va zamonaviy o'zbek publitsistikasida tilning ikki teng huquqli axborot berish va ta'sir etish vazifalari ko'zga tashlanishini va “... matnning uslubiy o'ziga xosligini aniqlash va tavsiflashda muayyan matnning umumiy uslubiy

⁷⁵ Тешабеева Д. М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида). Филол.ф. д-ри... дисс. – Тошкент, 2012. – Б. 62.

⁷⁶ Тешабеева Д. М. Ko'rsatilgan dissertatsiya. – B. 70.

qonuniyatlarini bilish muhim”⁷⁷ ligini ta’kidlaydi. Sh. A. Usmanova ham o’z ilmiy tadqiqotida funksional uslubshunoslikda publitsistikaning publitsistik va axboriy uslubini hosil qiluvchi omillarning dioxotomiyasiga alohida e’tibor berilishi⁷⁸ haqida fikr keltiradi.

Tadqiqotlarning katta qismi publitsistik diskursni tahlil qilishga bag’ishlangan bo’lib, ularning har birida uning turli xususiyatlarini o’rganishga harakat qilinadi. Zero, “gazeta-publitsistik uslubiga oid materiallarning kommunikativ-diskursiv tahlili natijasida mediamatnning yaratilishi publitsistik uslub ko’rinishlari bilan bog’liqligi aniqlanadi”⁷⁹.

Ta’kidlash lozimki, publitsistik uslub turli OAV orqali auditoriyaga ta’sir qilishda sohaviy terminologiya, ijtimoiy-siyosiy leksika hamda badiiy-uslubiy vositalar yordamida ekspressivlikni ta’minlash orqali auditorga ta’sir etish tabiatining mavjudligi bilan belgilanadi.

Darhaqiqat, erkinlik, ob’yektivlik, obrazlilik, ta’sirchanlik, ravonlik, ixchamlik, haqqoniylik, dabdabali, balandparvoz uslubdan voz kechish, emotsional-ekspressivlik kabilar tildan foydalanishning OAVlariga xos bo’lgan jihatlari hisoblanadi⁸⁰.

O’zbek publitsistikasida gazeta janrlarining tasniflanishi o’zaro farqli, ya’ni o’zbek gazetalarida qat’iy mezonlar asosida ajratilgan janrlar guruhi (axboriy, tahliliy hamda badiiy-publitsistik) mavjud. Ekspressiv vositalarning ommaviy ma’lum qilingan voqea-hodisaning nutq birligi orqali ifoda etilishi bo’lgani bois, uni publitsistikaning barcha janrlarida kuzatish mumkin. Zero, publitsistik uslubda matnning standartligi va ekspressivligi konstruktiv tamoyil hisoblanadi. Ekspressiya – mediamatnning belgilangan unsuri bo’lib, muallif yondashuvi va bahosini bildiradi⁸¹.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, gazeta tili ommaviy kommunikatsiya uslubining asosi bo’lib, jurnalistikaning asosiy tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Mass-medianing zamonaviy nutqiy amaliyotiga xos bo’lganlarning aksariyati gazeta tabiatidan kelib

⁷⁷ Артикова М. Р. Медиамаатнда прецедентлик феноменининг лингвомаданий аспекти (Ўзбек ва испан газеталари мисолида). Филол. фан... фалсафа доктори (PhD) дис. – Тошкент, 2022. – Б. 18.

⁷⁸ Усмонова Ш. А. Медиадискурса газета тили тенденциялари (Ўзбек ва инглиз тиллари мисолида). Филол. фан... фалсафа доктори (PhD) дис. – Тошкент, 2021. – Б. 39.

⁷⁹ Усманова Ш. А. Ko’rsatilgan dissertatsiya. – Б. 43.

⁸⁰ Усмонова У. Б. Публицистик матннинг ўзига хос хусусиятлари. // Finland, Helsinki international scientific online conference “Sustainability of education socio-economic science. Theory”. // <file:///C:/Users/ACER/Downloads>. – Б. 51.

⁸¹ Усмонова У. Б. Ko’rsatilgan maqola. – Б. 53.

chiqadi. Publitsistika zamonaviylikning o'ziga xos xronikasi hisoblanadi, chunki u siyosiy, ijtimoiy, madaniy, maishiy yoki falsafiy bo'lsin, jamiyatning dolzarb voqealari va muammolarini to'liq aks ettiradi. Umuman olganda, OAV tilining maqomini aniqlashda bir nechta yondashuv bo'lishi mumkin:

- 1) Unga yaxlit va publitsistik uslub bilan bir xil, deb qarash;
- 2) Axborotning texnik vositalariga va shakliga ko'ra turli uslubiy shakllari (yozma yoki og'zaki)ni inobatga olish;
- 3) OAV tilini mustaqil funksional uslub sifatida ajratib ko'rsatish. Mazkur xususiyat o'zining ustuvorliklariga ega: **birinchidan**, u mediamatnlarning texnik o'ziga xos xususiyatlarini va ularning noverbal belgilar bilan bog'liqligini hisobga oladi; **ikkinchidan**, zamonaviy OAVda jo'natuvchi va qabul qiluvchi o'rtasidagi vazifalar va munosabatlar o'zgaradi.

Sh. Usmanova zamonaviy gazeta tili – matnlarni yaratishda **publitsistik diskurs sifatida tavsiflanadi** va kommunikativ, uslubiy me'yorlarga muvofiq ravishda yaratiladi. Publitsistik uslubning diskursiv mazmun-mohiyatini e'tirof etish, kommunikativ faoliyat va uning mavjud muhiti ochiqqligini ta'minlaydi. Bu faoliyat asosidagi tashqi dunyo, borliq bilan bog'liq matn asosida muhim ahamiyatga egaligini alohida ta'kidlaydi⁸².

Shunday qilib, gazeta-publitsistik uslubi mualliflik hissiy ta'sirchan nutqiy vositalardan va ushbu uslubda keng qo'llaniladigan standartlardan foydalanganligi bilan boshqa uslublardan farqlanadi. Standart va ekspressiyaning mavjudligi mazkur uslubning axboriy va ta'sirchanlik vazifalariga bog'liq bo'lib, ushbu uslub axborotni uzatishda, jamoatchilik fikrini shakllantirishda va auditoriyaga ta'sir ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Артикова М. Р. Медиамаатнда прецедентлик феноменининг лингвомаданий аспекти (Ўзбек ва испан газеталари мисолида). Филол. фан... фалсафа доктори (PhD) дис. – Тошкент, 2022. – Б. 18.

⁸² Усманова Ш. А. Ко'rsatilgan dissertatsiya. – Б. 45.

2. Володина М. Н. Язык СМИ – особый язык социального взаимодействия. Язык СМИ как объект междисциплинарного исследования. Ч.2. – М.: МГУ, 2004. – 338 с.
3. Кубрякова Е. С., Цурикова Л. В. Вербальная деятельность СМИ как особый вид дискурсивной деятельности. Язык средств массовой информации: учебн. пособие для вузов. – М., 2008. – 298 с.
4. Тешабаева Д. М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида). Филол.ф. д-ри... дисс. – Тошкент, 2012. – Б. 62.
5. Усмонова Ш. А. Медиадискурса газета тили тенденциялари (ўзбек ва инглиз тиллари мисолида). Филол. фан... фалсафа доктори (PhD) дис. – Тошкент, 2021. – Б. 39.
6. Дадабаева Х., Тешабаева, Д. (2024). Роль акта в формировании коммуникативной компетентности при обучении иностранным языкам курсантов военного образования. in Library, 3(3), 235–242. // <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/28409>

INTENSIFIKATSIYA / DEINTENSIFIKATSIYA SEMANTIKASINING SO'Z BIRIKMALARI PARADIGMALARINI SHAKLLANTIRISHI

Avaz ZIYAEV

*Qo'qon davlat pedagogika instituti,
ingliz tili va adabiyoti kafedrası
professori, filologiya fanlari doktori*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sintaktik sathning asosiy birligi bo'lgan so'z birikmasi so'z shakllar bilan, intensifikatsiya/deintensifikatsiya ana shu shakllar bilan bog'liqligi, so'z birikmasi sintaktik birlik hisoblansa ham, u, aslida, sodda gapning qurilish materialli ekanligi, boshqacha aytganda, so'z birikmasi va gap orasida butun-qism munosabati mavjudligi intensifikatsiya/deintensifikatsiya hodisasi qismga, ya'ni so'z birikmasiga emas, balki ulardan tashkil topgan gapga xos ekanligi xususida fikr yuritadi.*

Kalit so'zlar: *sath, sintaktik sath, so'z birikmasi, gap, matn, so'z shakl, affiks, xokim-tobe munosabati.*

Ma'lumki, sintaktik sath birliklarini so'z birikmasi, gap va matn tashkil etadi. Ushbu birliklar orasida o'zaro ierarx tashkil etuvchilik xususiyati bor, ya'ni so'z birikmalaridan gap, gaplardan matn hosil bo'ladi. Sintaksisning morfologiya bilan